


**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Z.M.Bobur nomli Andijon Davlat Universiteti**

**“ Pedagogika ” fakulteti
“Musiq va uni o'qitish metodikasi” kafedrası**

Ashurova Moxidilning

“Intervallar” mavzusida

KURS ISHI



Ilmiy raxbar:

M Nasriddinov.

Andijon 2015

Mavzu: Intervallar

REJA :

Kirish.

- 1. Intervallar**
- 2. Intervallarning son va sifat miqdori**
- 3. Ortirilgan va kamaytirilgan intervallar.**
- 4. Intervallar aylanishi.**
- 5. Oxangdosh va nooxangdosh intervallar.**
- 6.Xulosa.**
- 7.Ilova .**
- 8.Foydalanilgan adabiyotlar.**

Kirish.

Yosh avlodni har tomonlama etuk qilib tarbiyalashda, maktabda o`qitiladigan barcha fanlar qatori, nafosat tarbiyasining tarbiyaviy qismi bo`lgan, musiqa madaniyati darslarini ahamiyati katta. Musiqa inson his – tuyg`ularini, orzu- istaklarini o`ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va bolaning hissiyotlariga faol ta'sir ko`rsatadi.

Musiqa fani maktabda boshqa fanlarni o`zlashtirishga ham bevosita ta'sir ko`rsatadi. Musiqa jonli san'at turi sifatida davr, hayot, tabiat va inson his – tuyg`ularini, orzu – istaklarini aks ettiradi. Uni quvontiradi, o`ylantiradi va hayotdan ozuqa olishga xizmat qiladi. Milliy madaniyatimiz bobokoloni Abu Nosir Al-Forobiy aytganidek, « Bu fan tana sog`ligi uchun foydalidir». Bobomiz Shayx Sa'diy « Musiqa odam ruhining yo`ldoshidir» - degan edi. Shunday ekan, biz musiqa o`qitishni, boshlang`ich sinf o`quvchilaridan boshlashimiz lozim. Chunki, boshlang`ich sinflarda musiqa ta'limotini poydevori qo`yiladi.

Umumta'lim maktablarida musiqa o`qitishning asosiy maqsadi - o`quvchilarga musiqa san'atini go`zallik qonunlari asosida o`rgatish malakasini singdirish va ularga musiqa madaniyatini tarkib toptirishdir. Boshlang`ich sinflardagi musiqa madaniyati darslari, umumiy ta'limning ahloqiy- estetik tarbiya berish tizimining ajralmas bir qismi bo`lib hisoblanadi.

Darsdan tashqari tashkil qilingan turli tadbirlar, tarbiyaviy soatlar, o`quvchilarni dunyoqarashini shakllantirishda ahamiyati katta. Musiqa o`qitish quyidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilib qo`yadi : O`quvchilarda musiqaga ihlos uyg`otish va ularning musiqiy qobiliyatlarini ritm tuyg`usini o`stirish, musiqiy o`quv, xotira, diqqat va badiiy didni shakllantirish.

O`quvchilarda milliy musiqa merosimizga va u orqali Ona – Vatanga muhabbat qissini tarbiyalash.O`quvchilarda badiiy ijodkorlik qobiliyatini o`stirish. O`quvchilarda go`zallikni ko`ra bilish va hayotga go`zallik olib kirish qobiliyatini rivojlantirish.

O`quvchilarning musiqiy ijodkorligini, taassurotini boyitishda, tasavvurlarini kengaytirishda musiqa tinglash faoliyatini ahamiyati katta. Musiqa tinglash darsining boshidan oxirigacha amalga oshadi, chunki musiqa madaniyati darslarining barcha faoliyat turlari ( qo`shiq kuylash, musiqiy ritmik harakatlar bajarish, musiqa tinglash) musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Musiqa madaniyati darslari o`quvchilarni atrofda go`zal narsalarni idrok eta olishga va ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umumta'lim maktablari uchun Davlat Ta'lim Standartlari asosida barcha fanlar qatori musiqa fanidan ham dastur ishlab chiqildi. yangi dastur mazmunida milliy

musiqamiz merosidan to'laqonli foydalanish, ommaviy xalq kuylari va qo'shiqlari, lapar, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqa o'z aksini topgan. Dasturning bosh mavzusi « Musiqa va hayotdir» yil, chorak, dars mavzulari, umumiy mavzuga bo'ysunadi va mantiqan uzviy birlashib mazmunan butunlikni tashkil qiladi.

Bu musiqa o'qituvchisidan ish mazmunini yangilashni talab etadi. Yangi dastur mazmunida dars o'tish uchun, musiqa o'qituvchisi o'zining musiqiy – nazariy bilimlarini takomillashtirishi lozim, chunki o'quvchilarning musiqa darsiga bo'lgan qiziqishini o'stirishda, yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda va ularni ma'naviyatli, ma'rifatli qilib voyaga etkazishda o'qituvchi etakchi bo'lib hisoblanadi. Barchaga ma'lumki, har qanday san'atkor ham maktabda musiqa darsini olib borolmaydi. Musiqa o'qituvchisi bo'lish uchun o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lmog'i lozim. U pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasining amaliy sohalarida chuqur bilimga ega bo'lmog'i lozim. Musiqa o'qituvchisining faoliyat miqyosi kengdir. Musiqa madaniyati darslari bilan birga u sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi turlarini qam tashkil etishi va boshqarishi lozim.

Maktabda sinfdan tashqari ochiq tarbiyaviy soatlar o'tkazish, musiqa tarbiyasining ommaviy va to'garak shakllarini olib borishi, musiqa o'qituvchisi zimmasidadir. Bunga « Mustaqillik bayrami», «Bilimlar kuni», «O'qituvchilar kuni», « Alifbe bayrami», « Yangi yil», « Navro'z bayrami », bolalarni - shoirlar, san'atkorlar bilan uchrashuvlar kiradi.

Bugungi Mustaqillik sharoitida ta'lim muammolarini hal qilishda musiqa o'qituvchisi zamon bilan hamnafas qadam tashlab axborot texnologiyasi va ilg'or pedagogik texnologiya malakalarini to'liq o'zlashtirish va shular asosida ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil etmog'i lozim.

1.

Intervallar

Bir vaqtda yoki birin-ketin eshitilgan ikki tovush qo'shilmasi interval deyiladi. Birin-ketin eshitilgan tovushlar melodik interval deyiladi. Baravariga eshitilgan tovushlar garmonik interval deyiladi. Intervallarning pastki tovushi asosiy yuqoridagi tovush chuqqisi deyiladi.




№	Interval nomi
1.	Prima
2.	Sekunda
3.	Tertsiya
4.	Kvarta
5.	Kvinta
6.	Seksta
7.	Septima
8.	Oktava

2

Intervallarning son va sifat miqdori


Xar bir interval son va sifat miqdori bilan aniqlanadi. Pog'onalar soni bilan ifodalangan intervallar son miqdori intervallar deyiladi. Ton va yarim tonlar soni bilan ifodalangan intervallar sifat miqdorli intirvallar deyiladi. Bir oktava oralig'ida xosil bo'lgan interval oddiy interval deyiladi.

Sakkizta oddiy interval bor. Intervallar lotin tilida nomlanadi.



Intervalning sifat miqdorini belgilash uchun; kichik, katta, sof, ortirilgan, kamaytirilgan soʻzlar ishlatiladi.

№	Interval nomi	Soni	Kiska Yuzilishi	Sifati
1.	Prima	Sof	S.1	0.ton
2.	Sekunda	katta, kichik,	Kat.2 Kich.2	1. ton 0,5 ton
3.	Tertsiya	katta, kichik,	Kat.3 Kich.3	2. ton 1,5 ton
4.	Kvarta	Sof ortirilgan	S.4 Ort.4	2,5 ton 3 ton
5.	Kvinta	Sof kamaytirilgan	S.5 Kam.5	3,5 ton 3 ton
6.	Seksta	katta, kichik,	Kat.6 Kich.6	4,5 ton 4 ton
7.	Septima	katta, kichik,	Kat.7 Kich.7	5,5 ton 5 ton
8.	Oktava	Sof	S.8	6 ton



Bu intervallar diatonik deb ataladilar.

3

Ortirilgan va kamaytirilgan intervallar.

Xar bir diatonik interval ortirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Ortirilgan intervallar sof va katta intervallardan tuziladi. Kamaytirilgan intervallar sof va kichik intervallardan tuziladi. Faqat sof prima kamaymaydi. Barcha ortirilgan va kamaytirilgan intervallar xromatik deb ataladi. Uch tonlikdan tashkari.




Ortirilgan intervallar





Kamaytirilgan intervallar

Xromatik interval Diatonik interval soniga teng keladi. Ortirilgan. 2 = kichik.
3 (1, 5 ton) kamaytirilgan. 7 = katta. 6 (4, 5 ton).





Son miqdori turlicha va eyshitilishi bir xilda bo'lgan intervallar engarmonik teng intervallar deyiladi.

INTERVALLAR AYLANISHI.

Interval tovushlarining bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishi natijasida pastki tovush yuqoriga va yuqoridagi tovush pastga joylashuvi, - Interval aylanishi deyiladi.

1. Asosiy (Pastki tovushni) bir oktava pastga ko'chirish.
2. Cho'qqini (yuqori tovushni) bir oktava pastga ko'chirish. Aylanish natijasida yangi interval xosil bo'ladi.






Qoida bo'yicha, sof intervallar - sofga kichik intervallar - kattaga katta intervallar-kichikka ortirilgan intervallar kamaytirilganga kamaytirilgan intervallar ortirilganga aylanadi va aksincha.

TARKIBLI INTERVALLAR.

Musiqada oddiy intervallardan tashqari oralig'i oktavadan keng intervallar xam qo'llaniladi. Oralig'i bir oktavadan keng intervallarni TARKIBLI interval deyiladi. Xar bir tarkibli interval pog'onalar soniga qarab nom olgan.

1. Nona - 9 = Oktava orqali tuzilgan sekunda.
2. Detsima - 10 = Tertsiya.
3. Undettsima - 11 = Kvarta.

4. Duodettsima -12 = Kvinta.
5. Tertsdettsima - 13 = Seksta.
6. Kvartdettsima -14 = Septima.
7. Kvintdettsima - 15 = Oktava.



Tarkibli intervalllarda sifat miqdorini belgilash uchun - sof, katta, kichik, ortirilgan, kamaytirilgan so'zlar qo'llanilgan.

OXANGDOSH VA NOOXANGDOSH INTERVALLAR.

Oxangdosh (konsonans) va nooxangdosh (dissonans) intervallar bo'ladi.

Oxangdosh (konsonans) deb bir-biri bilan uyg'unlashgan, oxangdosh bo'lib eshitiladigan tovushlar yig'indisiga aytiladi.

Nooxangdosh (dissonans) deb bir-biri bilan uygunlashmagan, quloqqa keskin eshitiladigan tovushlarga aytiladi.

Oxangdosh intervallar.

Sof prima	Nixoyatta mukammal oxangdoshlar.
Sof oktava	
Sof kvinta	Mukammal oxangdoshlar.
Sof kvarta	
Kichik tertsiya	
Katta tertsiya	Nomukammal oxangdoshlar.
Kichik seksta	
Katta seksta	

Nooxangdosh intervallar.

Kichik sekunda
Katta sekunda

Ortirilgan kvarta
Kamaytirilgan kvinta
Kichik septima
Katta septima

Qoida bo'yicha oxangdosh – oxangdoshga, nooxangdosh – nooxangdosh intervallarga aylanadi.

6

X U L O S A

Milliy ta'lim va tarbiya o'z mazmunida insonparvarlik, vatanparvavrlik. milliy g'urur, ahloqiy va umuminsoniy fazilatlarni mujassam etish bilan jamiyat rivojida ustivor ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda milliy ta'lim va tarbiya oldidagi eng muhim vazifalardan biri ham o'quvchi yoshlarda milliy ong va milliy madaniyatni tarkib toptirishdan iboratdir. Bu esa birinchi navbatda ta'lim va tarbiya ishlarida milliy ma'naviy qadriyatlardan unumli, oqilona va o'z o'rnida foydalanishini taqozo etadi. Fikrimizni prezidentimiz I.A.Karimovning «Biron bir jamiyat ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Biz ma'naviy

qadriyatlarini tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaratishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon, deb hisoblaymiz»-degan gaplari ham tasdiqlaydi.

Shunday ekan yoshlarni ma'naviy barkamollikka erishishlarida milliy musiqamizning kuch qudratiga tayangan holda ibratli pand – nasixatga boy xalqona yo`lda yaratilgan kuy va qo`shiqlardan foydalanishimiz zarur.

Bir vaqtda yoki birin-ketin eshitilgan ikki tovush qo'shilmasi interval deyiladi. Birin-ketin eshitilgan tovushlar melodik interval deyiladi. Baravariga eshitilgan tovushlar garmonik interval deyiladi. Intervallarning pastki tovushi asosiy yuqoridagi tovush chuqqisi deyiladi.

Xar bir interval son va sifat miqdori bilan aniqlanadi. Pog'onalar soni bilan ifodalangan intervallar son miqdori intervallar deyiladi. Ton va yarim tonlar soni bilan ifodalangan intervallar sifat miqdorli intirvallar deyiladi. Bir oktava oralig'ida xosil bo'lgan interval oddiy interval deyiladi.

Xar bir diatonik interval ortirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Ortirilgan intervallar sof va katta intervallardan tuziladi. Kamaytirilgan intervallar sof va kichik intervallardan tuziladi. Faqat sof prima kamaymaydi. Barcha ortirilgan va kamaytirilgan intervallar xromatik deb ataladi. Uch tonlikdan tashkari.

Interval tovushlarining bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishi natijasida pastki tovush yuqoriga va yuqoridagi tovush pastga joylashuvi, - Interval aylanishi deyiladi.

Musiqada oddiy intervallardan tashqari oralig'i oktavadan keng intervallar xam qo'llaniladi. Oralig'i bir oktavadan keng intervallarni TARKIBLI interval deyiladi. Xar bir tarkibli interval pog'onalar soniga qarab nom olgan.

Oxangdosh (konsonans) va nooxangdosh (dissonans) intervallar bo'ladi.

Oxangdosh (konsanans) deb bir-biri bilan uyg'unlashgan, oxangdosh bo'lib eshitiladigan tovushlar yig'indisiga aytiladi.

Nooxangdosh (dissonans) deb bir-biri bilan uyg'unlashmagan, quloqqa keskin eshitiladigan tovushlarga aytiladi.

Oddiy intervallar.

№	Interval nomi
----------	----------------------


1.	Prima
2.	Sekunda
3.	Tertsiya
4.	Kvarta
5.	Kvinta
6.	Seksta
7.	Septima
8.	Oktava



Интервалларни сон ва сифати.

№	Interval nomi	Soni	Kiska Yuzilishi	Sifati
1.	Prima	Sof	S.1	0.ton
2.	Sekunda	katta, kichik,	Kat.2 Kich.2	1. ton 0,5 ton
3.	Tertsiya	katta, kichik,	Kat.3 Kich.3	2. ton 1,5 ton
4.	Kvarta	Sof ortirilgan	S.4 Ort.4	2,5 ton 3 ton
5.	Kvinta	Sof kamaytirilgan	S.5 Kam.5	3,5 ton 3 ton
6.	Seksta	katta,	Kat.6	4,5 ton

		kichik,	Kich.6	4 ton
7.	Septima	katta, kichik,	Kat.7 Kich.7	5,5 ton 5 ton
8.	Oktava	Sof	S.8	6 ton



Interval aylanishi.



Tarkibli intervallar.

Nº	Intervallar nomi	Soni
1.	Nona.	9.
2.	Desima.	10.
3.	Undesima.	11.

4.	Duodesima.	12.
5.	Tersdesima.	13.
6.	Kvartdesima.	14.
7.	Kvintdesima.	15.

Oxangdosh va nooxangdosh intervallar.

Nixoyatda mukammal oxangdoshlar	Mukammal oxangdoshlar	Nomukammal oxangdoshlar	Nooxangdosh intervallar
Sof prima Sof oktava	Sof kvinta Sof kvarta	Kichik tersiya Katta tersiya Kichik seksta Katta seksta	Kichik sekunda Katta sekunda Oritilgan kvarta Kamaytirilgan kvinta. Kichik septima Katta septima

8

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.H.Rahimov «Musika elementar nazariyasi bo'yicha mashq va vazifalar to'plami» T.,2006
- 2.O.Azimov “ Garmoniya ” darslik. Nazariy kurs. T., «Qatortol – Kamolot » nashriyoti 2000.
- 3.M.I.Roytershteyn «Основы теоретического музыкознания» М., «Академа» nashriyoti 2003.
- 4.H.Rahimov «Garmoniya bo'yicha mashq va masalalar to'plami» T., «Alokachi» nashriyoti 2005.
- 5.Sami Aziz o'gli “Garmoniya ” T., Ozbekiston 2002.
- 6.www. Ziya/ net
- 7.http/www//urairti//ru
- 8.Ibroximov O., YUnusov .“Solfedjio ” Darsligi T., 2004
9. O'zbekiston – Vatanim manim. III, IV kitob. Sharq . T. 1999, 2000
- 10.M. Karimova “ Musika nazariyasi” uslubiy ro'llanma

2013 Andijon

11.M. Karimova “ Solfedjio ” uslubiy ro’llanma

2013 Andijon